# Ogahiyning ko’p jildlik asarlar to’plami chop etilmoqda

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-martdagi “Muhammad Rizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to’g’risida”gi 238-son qarorida 2019-2021 yillarda Ogahiy asarlar to’plamini nashr etish vazifasi belgilangan.


АСАРЛАР
ОГАҲИЙ
2
1-КИТОБ
6
7
8
9
10

Unga ko’ra, shu kunga qadar Muhammad Rizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy “Asarlar”ining 7 kitobdan iborat 6 jildi nashr qilindi. Ushbu keng ko’lamli va murakkab ilmiy-tashkiliy jarayonni Xorazm Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo’limi loyiha rahbari A.O’rozboyev muvofiqlashtirib bormoqda.

Bugungi kungacha “Firdavs ul-iqbol” (2-jild), “Gulshani davlat” (6-jild), “Shohidu-l- iqbol” (7-jild), “Axloqi Muhsiniy” (8-jild), Sa’diyning “Guliston”i tarjimasi va “Haft paykar” tarjimasi (9-jild) hamda “Miftoh ut-tolibin” (10-jild) nashr etildi.




Yaqin kunlarda yana 4 ta jildi, jumladan, Devon. “Ta’viz ul-oshiqin”, “Zubdat ut-tavorix”, “Riyoz ud-davla” va “Jome’ ul-voqe’oti sultoniy” asarlari chop qilinadi.